

**Jinoyatdan jabrlangan muhojirlarni huquqiy himoyalash xamda ularga yordam tizimi bo'yicha  
ko'rsatmalar**

Jinoyatdan jabr ko'rganlar tergov va sud jarayonlarida quyidagidek huquqiy erkinliklarini ta'minlash xamda yordam olishlari mumkin.

- Tergov va sud jarayonida bezovtalik yoki hayajonlanish tuyg'usini his qilish xavfi mavjud bo'lganligini inobatga olib, ishongan insonini o'ziga hamroh sifatida birga olib kelishi mumkin bo'lib, aniq muloqatni ta'minlash uchun tarjimon yo'llash xamda sudda to'g'ridan-to'g'ri qatnashib, voqeaga nisbatan o'z fikrini erkin bayon qilish huquqiga egadirlar.
- Jinsiy zo'ravonlik yoki bolalarga nisbatan zulm o'tkazish jinoyatidan jabr ko'rgan shaxs jinoiy ish bo'yicha tizimga asoslanib, qonuniy himoya olish uchun advokat yo'llashi mumkin. Bordiyu shaxsiy advokati yo'q bo'lsa, prokuror tomonidan taqdim etilgan davlat tomonidan tayinlangan advokatlarni yordamini olishi mumkin.
- Oilaviy zo'ravonlik yoki bolalarga nisbatan zulm o'tkazish jinoyatidan jabr ko'rgan shaxs prokuror yoki politsiya xizmatidan ayblanuvchiga nisbatan yaqinlashishni cheklash chorasini talab qilish yohud sud jarayonida himoya qilinishini talab qilishi mumkin.
- Ayblanuvchidan badal to'lovlarini undira olmagan vaziyatlarda tergov jarayonini o'tkazgandan so'ng prokuror yordami asosida davolash kabi moddiy harajatlarni undirib olishi mumkin. (Faqat, bu xolatda jabrlanuvchi Koreya Respublikasida qonuniy yashash huquqiga ega bo'lmog'i lozim bo'lib, ayblanuvchi chet ellik bo'lsa, jabrlanuvchi muhojirligini tasdiqlovchi guvohnomaga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim.)
- Oilaviy zo'ravonlik yoki jinsiy zo'ravonlik jabrlanuvchilariga nisbatan tergov, sud xamda qonuniy moddiy yordam olish tizimlari yakuniga yetgunga qadar Koreya Respublikasi davlatida yashab turish uchun viza muddatini uzaytirishga ruxsat beriladi. (Faqat, oilaviy zo'ravonlik mojarosida turmush o'rtog'i Koreya Respublikasining fuqarosi bo'lishi shart)
- Qotillik, shikastlash kabi inson hayotiga xamda salomatligiga ziyon yetkazuvchi jinoyatlar va o'g'irlik, qalloblik kabi mol mulkiga zarar yetkazuvchi jinoyatlar bundan tashqari jinsiy tajovuz kabi jinoyatdan jabr ko'rganlar yuzasidan tergov xamda ularni huquqlarini himoya qilish jarayonlarida jabrlanuvchi nolegal bo'lsada, ma'sul prokuror Immigratsiya ofisiga xabar bermaslik majburiyatiga egadir.

- ※ Batafsil ma'lumotlarni Respublika prokuraturasining jabrlanganlarga yordam bo'limiga qo'ng'iroq (☎1577-2584) qilib, maslahat olish yoki jinoiy yuridik portal([www.kics.go.kr](http://www.kics.go.kr))iga kirib, tekshirib ko'rish mumkin.
- ※ Respublika prokuraturasiga qo'ng'iroq qilish yoki tashrif buyrish yo'li bilan maslahat olish niyatida bo'lganlarga tarjimonlik xizmati zarur bo'lganda yashayotgan xududdagi prokuratura organi bilan bog'lanib, tarjimonlik xizmati bormi so'rash yoki elchixonada xamda turli millatlarga mansub oilalarga yordam markazlari (☎1577-1366) ga qo'ng'iroq qilib, tarjimonlik xizmatlari bo'yicha maslahat olish mumkin.

<Yuqoridagi ma'lumotlar bilan batafsil tanishganligimni tasdiqlayman.> 20 . . . Tasdiqlovchi (Imzo)

<Va boshqa yo'llar bilan ma'lumotni olgan> Og'zaki  Telefon  Fax  Pochta  va boshqa  Ma'sul (Imzo)